

“DEVON-U LUG‘OTIT TURK” VA O‘ZBEK SHEVALARIDA
-man/-men QO‘SHIMCHASI

Berdak YUSUFOV,

O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti

katta ilmiy xodim

@BerdakYusuf22

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.17488862>

Annotatsiya: Ushbu maqolada “Devon-u lug‘otit turk” asarida uchragan -man, -mon qo‘shimchalariga doir ma‘lumotlar keltirilgan. -man, -mon qo‘shimchalarining qo‘llanishidagi chalkashliklarga aniqlik kiritilgan va mulohaza bildirilgan.

Kalit so‘z: Turk tili, qabilalar dialekti, o‘g‘uz lahjasi, -män, -man, turkmon, qo‘shimchalar.

Mahmud Koshg‘ariy davrining standart adabiy tilining lug‘atini yozish bilan birga turli turkiy urug‘lar shevalariga ham o‘rin bergan. Shu nuqtai nazardan asariga “turk lug‘ati (turk tili)” o‘rniga “turk lug‘oti (turk tillari)” degan. Bu yerdagi “tillardan” maqsad shevalardir. Ushbu asarning Amerikadagi nashrida ham asarning nomi “Compendium of Turkic Dialects (turk shevalari lug‘ati)” tarzida berilgan. [Ercilasun, 2005:319] Taniqli turkolog E.N.Nadjip mazkur asarni ham til, ham dialekt deydi: “Mahmud Koshg‘ariyning o‘rta asrda yozilgan dialekt lug‘ati XI asr turkiy tillari va dialektlari leksikasining ancha qismini o‘z ichiga oladi.” [Наджип, 1989:33].

“Devonu lug‘otit turk” asarini o‘zbek tiliga tarjima qilgan S.Mutallibov “Mahmud Koshg‘ariy o‘z davrining ulug‘ dialektologi edi. U o‘sha davrning benihoyat murakkab vaziyatdagi qabilalarini va ularning tillarini mukammal aniqlab chiqdi”, [Кошғарий, 1960:23]. deydi. Shuningdek u “Har holda chigil qabilasi tili u davrdagi qo‘shni dialektlar tilini umumiyashtirish uchun asos bo‘larlik imkoniyatga ega bo‘lgan edi” [Кошғарий, 1960:11]. Ko‘rinib turganidek, S.Mutallibov “Devonu lug‘otit turk”dagi qabilalar tili, qabilalar dialekti kabi iboralarni ishlatadi.

M.Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk” asarida ushbu –män//–man affikslari yumshoq va qattiq variantlarda uchraydi. Mazkur asarda

-män//–man qo‘shimchasi bilan yasalgan o‘n ikkita so‘zni uchratish mumkin.

Kekmän so‘zi “Devonu lug‘otit turk” da kekmäk tarzida berilgan. [Divanü lügat-it-Türk, 1985:479-480].

Kekmäk er-toblangan, chiniqqan (I,444); ketmän “ketmon” (I,416), közmän “k‘moch non” (I,406), qurman “o‘q-yoy solinadigan idish” (I,416), örtmän “tom” (I,419), siqman “uzum siqiladigan vaqt” (I,416), sökmän “pahlavonlarga beriladigan laqablardan biri, “jang saflarini sindiruvchi” (I,415), sökmänlänmäk “qahramon bo‘lmoq”, tegirmän “tegirmon” (I,350), turkmän “turkman” (III,415), yaliman

“ochiq-sochiq g‘animatlar” (III,45), yasiman “suv bo‘shatilganda idishdan qulqullab chiqadigan ovoz” (III,45). [Divanü lügat-it-Türk, 1985:278].

Misollardan ko‘rinib turibdiki, “Devonu lug‘otit turk”da mazkur affiksning har ikki varianti, ya’ni yumshoq *-män* (sakkiz marta) va qattiq *-man* (to‘rt marta) shakllari qo‘llangan. Hozirgi o‘zbek adabiy tilida esa aksincha, “deyarli hamma vaqt “qattiq” formada qo‘llanadi” [Фуломов, 1961:20]. Shuningdek, yuqorida keltirilgan so‘zlarda *-män/-man* fe‘l o‘zaklariga ham, ot o‘zaklariga ham qo‘shilib kelmoqda.

Bu affiks haqida turli olimlar turlicha fikr bildirganlar. Masalan, A.G‘ulomov o‘zining bir maqolasida [Фуломов, 1961:20] ushbu affiksning ishlatilishi, uning genezisi haqida fikr yuritadi. Jumladan u “Eski o‘zbek tilida eng passiv so‘z yasovchilardan bo‘lgan *-mən* affiksi hozirgi zamon o‘zbek tilida yangi so‘z hosil qilish funksiyasini bajarmaydi, u ba’zi sanoqli so‘zlarning sostavidagina uchraydi”, [Фуломов, 1961:20] deb yozadi. Shuning uchun bo‘lsa kerak, o‘zbek tili grammatikasiga bag‘ishlangan A.M.Shcherbak, Ya.Ekman, G‘.Abdurahmonov, Sh.Shukurovlar asarlarida mazkur qo‘shimcha haqida ma’lumot berilmaydi. Shuningdek, hozirgi o‘zbek adabiy tili grammatikalarida ham, *-man//-mon* affiksi haqida ma’lumot yo‘q. Shuningdek, A.G‘ulomov “Ustə:mən so‘zidagi *-mən* elementi tojikcha monistan (o‘xshash bo‘lish; hozirgi zamon negizi: *-mən*) so‘ziga aloqador bo‘lsa kerak”, [Фуломов, 1961:22] deb yozadi. Buni, bizningcha, asoslash lozim.

A.G‘ulomov tarkibida *-mən* affiksining borligi taxmin qilingan ba’zi so‘zlarning ma’nosi va etimologiyasi juda ham aniq emas deb, bir necha so‘zni, shu jumladan palaqmon so‘zini ham keltiradi [Фуломов, 1961:22]. Bizningcha, palaqmondagi *-mən* qo‘shimchasining biz so‘z yuritayotgan *-mən* affiksiga aloqasi yo‘q. Mazkur so‘z tojik tilidagi *faloxan//faloxun* [Фарҳанги,1969:408] dan kelib chiqqan.

X.Doniyorov ham mazkur qo‘shimcha haqida bir maqola e’lon qilgan [Дониёров, 1976:19-24].

U ham mazkur affiks bilan hozirgi o‘zbek adabiy tilida so‘z yasali holati deyarli uchramaydi, ammo *-man//-mon* qipchoq shevalarida va xalq dostonlari tilida adabiy tildagi hamda shahar shevalaridagiga nisbatan tez-tez uchrab turishini yozadi [Дониёров, 1976:20].

Shuningdek, olim A.G‘ulomov bu affikslarning 20 dan ortiq formasini misol keltirganini, ammo X.Doniyorov ushbu qo‘shimchaning otlarga qo‘shilib kelganlarining umumiy soni 100 dan ortiq ekanini ta’kidlaydi. Ammo u maqolasida mazkur so‘zlarni keltirmaydi.

X.Doniyorovning fikricha, o‘zbek tilida, ayniqsa qipchoq shevalarida bu affiksning so‘z yaratish xususiyati va imkoniyati hozirgi vaqtda ham ma’lum darajada saqlanib qolgan [Дониёров, 1976:20]. Olim Ulmon, Qulmon, Qurmon,

Qorman, Ko‘kaman, Otaman, Bekman, Toshmon, Eshmon, Qo‘shmon, Ermon, Normon, Sirmon, So‘loqmon, turkman, to‘mon, elman kabi so‘zlarni keltiradi [Дониёров, 1976:20]. Bu yerda turkman, to‘mon, elman so‘zlaridan boshqa hamma so‘zlar atoqli ot bo‘lib kelmoqda. Bizningcha mazkur turdosh otlarning izohi berilsa, maqsadga muvofiq bo‘lardi.

X.Doniyorov *-man// -mon* affiksi qipchoq shevalarida tojik tilining ta‘siriz, avvaldan qo‘llanilib kelingan forma sifatida mavjud bo‘lgan” [Дониёров, 1976:20]. degan to‘g‘ri xulosaga keladi. Darhaqiqat, *-mān/-man/-men/-mən* affikslari sof turkiychadir. A.N.Kononov ham “aftidan bu affiks Türkmen etnonimi tarkibida ham mavjud” [Кононов,1956:105]. *-ban* (*-pan*), *-man* affiksining fonetik variantidir. ...turkcha *-man* bilan forscha *-ban*, *-van* qo‘shimchalarining kontaminatsiyasining hosilasi bo‘lishi mumkin! [Кононов,1956:106].

Mazkur affiks bilan yasalgan so‘zlar eski o‘zbek tilida va o‘zbek xalq dostonlari hamda shevalarida ham uchrab turadi. Eski o‘zbek tilida: *olaqmən*, “otliq otryad, talovchilar otryadi” [Фуломов, 1961:20]. Xalq dostonlarida: *kökämän* (*kökämän alp*), *shäkämän* (*shäkämän qirag‘ay*), *kengäshmän* “maslahatchi”. O‘zbek xalq shevalarida: *bulaman* “puf-lab chalinadigan musiqa asbobi turi. Surnayning kichigi” (Xorazm), *siqman* “bir ovqat turi” (Xorazm), *yechmän* “bir ovqat turi” (Forish shevasi), *edärman* “uddaburon” (Olot tumani, chandir shevasi), *chaqichmən* “chaqichchi” (Toshkent shevasi), *gulmən* “gulchi” (Toshkent shevasi) [Фуломов, 1961:20].

R.Yo‘ldoshevning ham *-mon* haqida bir maqolasi chop etilgan. [Йўлдошев, 1997:62-65]. U Alisher Navoiyning “Farhod va Shirin” dostonidagi

Ko‘ngul bermish so‘zumga turk, jon ham,

Ne yolg‘uz turk, balkim turkmon ham

baytidagi “turkmon” so‘zining ma‘nosi va undagi *-mon* affiksi haqida to‘xtaladi.

R.Yo‘ldoshev, A.Hayitmetov, R.Rajabov, S.Garrievlarning “turkmon” so‘zini hozirgi “turkman” ma‘nosida tushunganliklarini tanqid qiladi. U “biz urg‘u berayotgan misralarda “turkmon” so‘zi hozirgi “turkman” xalqi ma‘nosida emas, balki “turk emaslar” degan ma‘noda ishlatilgan,” [Йўлдошев, 1997:63] deydi. U bu fikrini isbotlash uchun shakl yasovchi *-mon* bilan so‘z yasovchi *-mon* affikslarini qorishtirib yuboradi. U yozadi: “F.Abdullayev *-mon* qo‘shimchasining bo‘lishsiz forma hosil qilishini birinchi bo‘lib isbotlab bergan edi. U turkman tili bilan o‘zbek tilining o‘g‘uz lahjasiga mansub bo‘lgan Xorazm o‘g‘uz shevalarini o‘zaro qiyoslar ekan, XIV-XV asr yozma yodgorliklarida hozirgi-kelasi zamon fe‘lining bo‘lishsiz formasi “bilmon” tarzida ishlatilishini qayd qiladi”:

Men vafosiz va‘dasidin shodmen,

Ul vafo bilmonki, qilmas yo qilur,
Turub ma’ruzada so‘z haddimni bilmon
Javob ayturg‘a o‘z haddimni bilmon.

(Alisher Navoiy)

Ammo olim ushbu qo‘shimchaning ot so‘z turkumiga qo‘shilib kelishi to‘grisida fikr bildirmagan,” [Йўлдошев, 1997:63] deydi. Yuqoridagi misoldagi “ma’ruza” so‘zi xato yozilgan. U “Farhod va Shirin” dostonining tanqidiy matnida “ma’raz” shaklida berilgan. Shuningdek, Navoiyda bunaqa to‘rtlik yo‘q. Fe’lning I shaxs birlikdagi bo‘lishsiz shaklini hosil qiluvchi *-mon* affiksining ot so‘z turkumiga qo‘shilmasligini faqat F.Abdullayev emas, hamma biladiku! *-mon* qo‘shimchasi bo‘lishsiz forma hosil qilishini F.Abdullayevdan oldin ham olimlar bilishgan.

R.Yo‘ldoshev X.Doniyorov, A.G‘ulomovlarning *-mon* so‘z yasovchi affiksi haqidagi fikrlarini keltiradi. *-mon* qo‘shimchasining bo‘lishsiz forma yasashi, inkor ma’nosini anglatishi to‘grisida A.G‘ulomovning ushbu maqolasida hech narsa deyilmagan, [Йўлдошев, 1997:64] deydi. X.Doniyorov, A.G‘ulomovlar shakl yasovchi *-mon* emas, balki so‘z yasovchi *-mon* qo‘shimchasi haqida fikr yuritganlar. So‘z yasovchi *-mon* bo‘lishsiz shaklda ishlatilmaydi.

“Xullas deydi u, Navoiy va uning zamondoshlari, shuningdek, ulardan keyingi shoirlar asarlarida *-mon* affiksining inkor ma’nosida kelishi juda ko‘p uchraydi”, [Йўлдошев, 1997:64] deb biz so‘z yuritayotgan so‘z yasovchi *-mon* emas, balki shakl yasovchi *-mon* haqida fikr yuritmoqda.

Maqolasining oxirida R.Yo‘ldoshev shunday xulosa qiladi: “Demak, yuqoridagilardan kelib chiqib, shuni ayta olamizki, barcha anglashilmovchiliklar ana shu qo‘shimchaning matnda qaysi ma’noda ishlatilganligini bilmaslikdan kelib chiqqan. To‘g‘ri, yuqorida keltirilgan so‘zlarda *-mon* ko‘pincha fe’lga qo‘shilib kelgan. “Turkmon” so‘zida esa otga birikkan. Ilmiy manbalarda ushbu qo‘shimchalarning faqat fe’lga emas, otga ham qo‘shilib kelishini ko‘rdik. Bizningcha, bu affiks ot turkumidagi so‘zlarga ham qo‘shilib, inkor ma’nosini anglatgan lisoniy birliklar hosil qilishi mumkin ekan... Unda o‘z–o‘zidan yuqoridagi misralardagi turkmon so‘zining turk emaslar degan ma’noga ega ekanligi ma’lum bo‘ladi. [Йўлдошев, 1997:64]. Ko‘rinib turibdiki, yuqorida aytganimizdek R.Yo‘ldoshev shaklan bir xil, mazmunan har xil bo‘lgan ikki qo‘shimchani bitta qo‘shimcha deb tushungan, ularni qorishtirib yuborgan. Natijada, turkmon so‘zining ma’nosini noto‘g‘ri izohlagan.

Turkmon (turkman, turkmen) so‘zi uning yozilishi va etimologiyasi haqida turli fikrlar mavjud. Turkman atamasi birinchi bor X asrda yashagan geograf Maqdisiy asarida uchraydi. Maqdisiyda turkmen deganda o‘g‘uz va qarluqlar tushuniladi” [Бартольд, 1929:5-6].

Turkmen so‘zining birinchi etimologiyasi Abu Rayhon Beruniyga tegishlidir. U bu so‘zni “turkka o‘xshash” deb tarjima qiladi va islomni qabul qilgan o‘g‘uzlarga berilganligini aytadi [Agadjanov, 1969:12]. Turkman so‘zidagi *-man* affiksi fors tilidagi monand “o‘xshash” so‘zidan hosil bo‘lgan, degan qarash keng tarqalgan. Bu haqida bir rivoyat bor.

“Bu yigirma ikki oila ular orqasidan yayov borishi yoki o‘z joylarida tura berish haqida maslahat qilayotgan edilar, bular yoniga ikki kishi kelib qo‘shildi. Oilalari ham ular bilan birga edi. ...ular ikki oilaga aytdilar. ...qal ach, shu yerda turinglar,” **och qolinglar** demakdir. So‘ng ular “xalach” deb aytilganlar. Xalachlarning asli shudir. Ular ikki qabiladir” [Кошғарий, 1963:421-422].

“Zulqarnayn kelib, ularni sochli, ustlarida turli belgilari borligini ko‘rgach, ulardan so‘ramasdan oq, ularga turkmonand deganmish, bu “turkka o‘xshash” demakdir. Ushbu nom ularga bugungacha qolgandir” [Кошғарий, 1963:421-422]. Ular avval 24 qabila bo‘lgan, ammo ba’zi sabablarga ko‘ra xalajlarning 2 qabilasi ulardan ajralgan, shuning uchun ularga qo‘shilmaydi. Turkmanlarning paydo bo‘lish asosi shunday” [Материалы по истории туркмен и Туркмении, 1939:313]. Bu bir rivoyat, albatta. Chunki eramizdan oldin “turkman” degan nom biron ishonchli manbada uchramaydi. Turk etnonimining o‘zi V-VI asrlarda uchraydi. Eski yozma yodgorliklarda mazkur etnonim “turkman” va “turkmon” shakllarida uchraydi. Yuqorida Navoiydan keltirilgan baytda “turkmon” shaklida ko‘zga tashlanadi. Umuman, shoir asarlarida bu termin ko‘pincha “turkman” shaklida uchraydi.

Navoiyo, erur ul sho‘x turkman bas tund,

Navo tilar esang andin yugurma ordicha cho‘x.

Navodurush-shabob, IV–85.

Navoiyning Turkiyada nashr etilgan asarlarining tanqidiy matnida faqat ikki o‘rinda turkmon (Türkmän) shaklida yozilgan: Shoh Turkmonning taxallusidir. Turkmon beglarida mutaayyin xushtab va zarofatlig‘ kishi erdi [Навоий, 1997:158].

Shuni takidlash lozimki, mazkur etnonim hozirgi o‘zbek adabiy tilida “turkman”, ba’zi o‘zbek tilining o‘g‘uz shevalarida *-men* qo‘shimchasi bilan “turkmen” shaklida talaffuz etiladi: Türkmen gilemlerini köp satıvaldı (Olot tumani, chandir shevasi, Buxoro); Ālāt türkmene çeğerede caylaşan (Jondor tumani, chandir shevasi, Buxoro).

O‘zbek adabiy tilida *-man//mon* qo‘shimchasi quyidagi o‘n ikkita so‘z tarkibida uchraydi: ishbilarmon, ishbuzarmon, saqmon, so‘loqmon, siqmon, tegirmon, toparmon-tutarmon, ustabuzarmon, ustamon, o‘zbilarmon, o‘larmon, chakmon [Қўнғуров, Тихонов, 1968:]. kabilar. Yuqorida ko‘rganimizdek “Devonu lug‘otit turk”da ham *-män//man* qo‘shimchalari ishtirokidagi so‘zlar soni o‘n ikkita

edi. Mana shu kichik misol ham “Devonu lug‘otit turk” tili hozirgi zamon o‘zbek adabiy tiliga yaqinligini ko‘rsatadi.

Turk tilida esa *-man//men* affiksi bilan yasalgan quyidagi so‘zlar mavjud: belletmen, çevirmen, dikmen, degirmen, düzeltmen, egemen, eleştirmen, egirmen, etmen, göçmen, gökmen, gözetmen, gezmen, işletmen, karaman, kosaman, kölemen, kirmen, küçümen, koyman, sekmen, öğretmen, yönetmen [Yusuf, 2004:] kabilar.

Ko‘rinib turibdiki *-man//men* qo‘shimchasi bilan yasalgan so‘zlar turk tilida “Devonu lug‘otit turk” va o‘zbek adabiy tilidagidan ko‘proq. Buning sababi Turkiyada yigirmanchi asrning 30–yillarida yangi so‘z yasash jarayonida mazkur affiks yana qayta tiklandi, uning vositasida ko‘plab yangi so‘zlar hosil qilindi. *-män//man* affiksi bilan yasalgan bunday yangi so‘zlar turk adabiy tilida hozir ham faol qo‘llanmoqda.

-man qo‘shimchasi bilan yasalgan turkman etnonimi haqida yuqorida aytilganidek turli qarashlar bor. Turk olimi Ziyó Go‘kalp yozadi: “Biz turkmon bilan turkmanni ajratamiz. Turkmonlar, Salur Qara Xon va Chanaq Xon, Satuq Bug‘ra va Ilik Xon nomlariga ega bo‘lgan bir Xoqoniya davlati hukmdorining zamonida islomni qabul etgan va hanuz islomni qabul etmagan Sharq turklari bilan urush olib borgan ellar va budunlar to‘plilig‘idir.

Turkmon so‘zi “Turkka o‘xshash” degani. Oralarida din farqi bo‘lgani uchun to‘g‘ridan to‘g‘ri turkmiz deya olmasdilar. Turkmanlar esa, bular turkmonlar orasida hanuz el hayotini yashayotgan va haligacha ko‘chmanchilikdan voz kechmagan bir o‘g‘uz elidir” [Gökalp, 1991:17-18].

Turkiyada chop etilgan lug‘atlarda mazkur so‘zning ikki xil shakli keltiriladi va shunday izoh beriladi. “Turkmon (Türkman) (Fars. Turkmān). “Turkman” so‘zining eski matnlarda uchraydigan asl shakli” [Misalli Büyük Türkçe Sözlük. 2005:127]. Turkman (Türkmen) (Fars. Turkmādan). “O‘g‘uz turklarining bir bo‘lagi va bu bo‘lakdan bo‘lgan kishi”. Tojik adabiy tilining lug‘atida “turkman // turkmon تر کمان // ترکمن turkiy tillar oilasiga mansub xalq nomi” [Фарҳанги, 1969:378].

Iroq turkmanlariga nisbatan “turkmon” etnonimi qo‘llaniladi. Ko‘rinib turibdiki Turkiya va Tojikistonda nashr etilgan lugatlarda turkman va turkmon so‘zlari bir xil ma‘noda ekanligi qayd etilgan. Yuqorida Navoiy asarida keltirilgan

Ko‘ngul bermish so‘zumga turk, jon ham,

Ne yolguz turk, balkim turkmon ham

baytidagi “turkmon” ham Ziyó Go‘kalp aytgan ma‘noda emas, balki “turkman” ma‘nosida qo‘llangan. Shuni ham qayd etish lozimki, mazkur baytning Turkiyadagi nashrida ushbu so‘z “turkmon” emas, balki “turkman” (Türkmen) shaklida berilgan. Bu ham “turkman” bilan “turkmon” ma‘noda farqlanmasligini bildiradi.

Umuman, hozirgi o‘zbek adabiy tili va shevalarida mazkur qo‘shimchani -
man, -men, -mon variantlari uchraydi. “Devonu lug‘otit turk” va Navoiy asarlari tilida
esa uning *-mān/-man/-men* shakllari mavjud.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ahmet B. Ercilasun. Türk Dili Tarihi. Baskı| Ankara 2005. – B. 319.
2. Наджип Э.Н. Исследования по истории тюркских языков XI-XIV вв. – М., 1989.
3. Махмуд Кошғарий “Девону луғотит турк”. С.Муталлибов таржимаси. – Тошкент, 1960.
4. Divanü lügat-it-Türk Tercümesi. I. Ankara, 1985. – B. 479-480.
5. Фуломов А.Ф. Ўзбек тилида -мән аффикси. Ўзбек тили ва адабиёти масалалари. – №3. – Тошкент, 1961. – Б. 20.
6. Фарҳанги забони тожики. – Душанбе, 1969. – Б. 408.
7. Дониёров Х.Д. -ман, -мон аффикси ва унинг кипчок шеваларида қўлланиши (ва генезиси). Ўзбек тили грамматик қурилиши, лексикология ва диалектологияси масалалари. V чиқиши. – Самарқанд, 1976. – Б. 19-24.
8. Кононов А.Н. Грамматика современного турецкого литературного языка. – М., 1956. – С.105.
9. Йўлдошев Р. “Кўнгул бермиш сўзумга” ёки бир сўз маъноси хусусида // Ўзбек тили ва адабиёти.– №5. – Тошкент, 1997. – Б. 62-65.
10. Бартольд В.В. Очерк истории туркменского народа. Сб. – Туркмения, 1929. – С. 5-6.
11. Агаджанов О.Г. Очерки истории огузов и туркмен Средней Азии IX-XIII вв. – Ашхабад, 1969. – С. 12.
12. Махмуд Кошғарий. Девону луғотит турк. III том, – Тошкент, 1963. – Б. 421-422.
13. Материалы по истории туркмен и Туркмении. VII-XV вв. – М., 1939. – С. 313.
14. Алишер Навоий. Мукамал асарлар тўплами. Ўн учинчи том. Мажолисун-нафоис. – Тошкент, 1997. – Б. 158.
15. Қўнғуров Р., Тихонов А. Ўзбек тилининг чаппа луғати. – Самарқанд, 1968.
16. Yusuf B. Turk tilining ters lug‘ati. – Toshkent, 2004.
17. Ziya Gökalp. Türk uygarlığı tarihi. İstanbul. 1991. – B. 17-18.
18. Misalli Büyük Türkçe Sözlük. – Ankara, 2005. – B. 1276.